# “Oʻzkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisining axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi — matbuot kotibi tayinlandi

// 18 February 2022 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/matbuot-kotibi-tayinlandi



“Oʻzkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati Matbuot xizmati rahbari Eshbekov Rustambek Ravshanjon oʻgʻli Boshqaruv raisining axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi — matbuot kotibi lavozimiga tayinlandi.

Rustambek Eshbekov 2019 yil Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining Xalqaro jurnalistika fakultetini tamomlagan. Bunga qadar R.Eshbekov “Oʻzagrotexsanoatxolding” AJ matbuot kotibi, “MY5

Productions” MCHJ direktori va “Mening Yurtim” (MY5) telekanalida jurnalist, muallif-boshlovchi va Ijtimoiy-siyosiy boʻlim muharriri sifatida faoliyat yuritgan.

Lavozimga tayinlov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi xulosasiga koʻra amalga oshirildi.